



Kafedra mudiri:

tarix.f.d., dotsent Maxkamova Nadira Raxmanovna

Qabul vaqti: Dushanba-Juma (14:00-16:00)

Telefon: (0 371) 238-64-75

E-mail: n.maxkamova@tuit.uz

N.R.Maxkamova 1989 yil ToshDU (hozirgi O'zMU)ning tarix fakultetini a'lo baholarga bitirgan va shu yili aspiranturaga o'qishga kirgan. 1995 yilda u nomzodlik dissertasiyasini muvofaqiyatli yoqlagan.

Nodira Rahmanovna 1996 yilda O'zR FA Tarix instituti "Tarixshunoslik va manbashunoslik" bo'limiga ilmiy xodim lavozimiga ishga qabul qilingan. 1999 yildan 2002 yilgacha shu institutda doktorant bo'lgan va "Sotsialnaya struktura obshestva na territorii Uzbekistana: traditsii i transformasii (kones XIX -30-e godi XX v.)" mavzusidagi doktorlik dissertasiyasi ustida ilmiy tadqiqotlar olib borib, 2009 yilda uni muvofaqiyatli himoya qilgan. Doktoranturani tugatgach, u O'zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti "Tarixshunoslik va manbashunoslik" bo'limi katta ilmiy xodimi va grant rahbari lavozimlarida faoliyat yuritgan.

N.R.Maxkamovaning ilmiy faoliyati ham alohida taqsiinga sazavor bo'lib, u o'zining sermazmun ma'ruzalari bilan ko'plab xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda, seminarlarda muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda. Tadqiqotchi tomonidan doktorlik dissertasiyasi mavzusi bo'yicha respublika va xorijiy ilmiy nashrlarda jami 70 dan ortiq ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlari va ilmiy monografiya chop etilgan.

N.R.Maxkamova O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti va O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Iqtisoslashgan Kengashlarning a'zosi bo'lib faoliyat ko'rsatgan.

Kafedra tarixi

"O'zbekiston tarixi" kafedrasiga 1955 yilda asos solingan bo'lib, u alohida kafedra shaklida 1970 yilda bir qator ijtimoiy fanlar kafedralari bilan bir vaqtda tashkil etildi. Ijtimoiy fanlar kafedrasiga avval 1967 yilgacha dotsent, (keyinchalik, texnika fanlari doktori, professor, akademik) X.T.Tursunov mudirlik qildi. Kafedrada 1955 yilda, dastlab, dotsent, (1976 yil texnika fanlari doktori, 1978 yil professor) S.YA.Svirskiy faoliyat yuritdi. Keyingi yillarda dotsent V.V.Yakovlev, L.T.Salimyaznova, dotsent S.M.Yafasova, dotsent V.I.Polyakov, dotsent A.M. Mirxolikov, X.X.Abduraxmonov katta o'qituvchi BD.Yusupov, dotsent M.T.Abdurasulovlar xizmat qildilar. Kafedraga 1965 yili M.V.Lomonosov nomidagi MDU ni tugallagan N.V.Mandralskaya qabul qilindi. Kafedra o'qituvchilari tarix, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi va bir qator fakultativ fanlardan talabalarga bilim berdilar.

Kafedra 1967-1983 yillari tarix fanlari nomzodi, dotsent X.X.Abduraxmonov, 1982-2003 yillari tarix fanlari doktori, professor, O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan fan arbobi A.G.Abdunabiev, dotsent N.G.Ozerova, dotsentlar V.V.Yakovlev, A.M.Mirxolikov, tarix fanlari doktori, professor A.Uralov, dotsent M.M.Saidovalar mudirlik qildilar. Hozirgi vaqtda kafedrani t.f.d., dotsent N.R.Maxkamova boshqarib kelmoqda (2009 yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan).

Shu mudirlar ichida kafedraning ravnaqiga juda katta xissasini qo'shgan olimlardan biri Abdunabiyev Abdulla G'ulomovichdir. U 1983 yildan 2008 yilgacha TATUning "O'zbekiston tarixi" kafedrasida faoliyat ko'rsatdi. Shundan 1983-2002 yilgacha kafedraga mudirlik qildilar. Ish jarayonida unumli mehnat qilib, ustoz degan ulug' nomni sharaf bilan oqlab keldilar. U o'z faoliyati davomida yoshlarimizni yetuk mutaxassis, komil inson qilib tarbiyalashga ulkan hissa qo'shish bilan birga yuzdan ortiq ilmiy maqolalar, risolalar va kitoblar yozib nashrdan chiqardi. 24 nafar fan nomzodi tayyorlab, uch doktorlik dissertatsiyasiga maslahatchi bo'lgan. U "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitish dasturining muallifidir. Hukumatimiz ko'p yillik ilmiy va pedagogik mahoratini inobatga olib, uni bir qancha orden, medal va "Faxriy yorliq"lar bilan taqdirlagan.

Kafedra o'qituvchilari professor A.G.Abdunabiyev ilmiy rahbarligida, rus tilida "Ocherki istorii razvitiya

svyazi v Uzbekistane” kitobini tayyorlab, 1991 yili “Fan” nashriyotida chop ettirdilar. Kafedra mudiri professor A.G.Abdunabiyev oliy o’quv yurtlari uchun “O’zbekiston tarixi” fanining na’munaviy dasturini yaratishda faol qatnashganlardan biri hisoblanadi. Uning “Tarix munavvar ko’zgu”, “Intilganga tole’ yor”, “Toshkentning mo’tabar kishilari” kitoblari hozirda talabalar uchun asosiy adabiyotlardan biri bo’lib qolmoqda.



2002-2005 yilgacha “O’zbekiston tarixi” kafedrasiga tarix fanlari nomzodi dotsent Saidova Malika Malikovna rahbarlik qildi. Rahbarlik qilish jarayonida kafedra har taraflama taraqqiy etib ilmiy salohiyati ko’tarilib bordi. U mudirlik qilgan yillarida Salamullaev Xayrulla Salamullaevich nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, tarix fanlari nomzodi unvonini oldi, dotsent lavozimida ishlab kafedra ravnaqiga katta xissa qo’shdi. Shuningdek, kafedra professor-o’qituvchilari tomonidan ko’plab risolalar, o’quv - uslubiy qo’llanmalar tayyorlandi va ommaviy axborot vositalarida, davriy matbuotda ko’plab ilmiy maqollar chop etildi. Shu bilan birga turli xalqaro ilmiy anjumanlarda o’z ma’ruzalari bilan faol qatnashdilar.

2006 yildan boshlab Maxkamova Nodira Rahmanovna kafedraga mudirlik qilib kelmoqda. Uning rahbarligi jarayonida ham kafedra ish faoliyati susaygani yo’q, aksincha yanada yuqoriga ko’tarildi. Kafedraga yangi fanlardan “Harbiy tarix”, “Madaniyatshunoslik” va “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanlari qo’shildi. Natijada, “Harbiy tarix” fani bo’yicha Arifxanov Baxtiyor Anvarovich dastur ishlab chiqish birga shu fanni o’rganish uchun “Istoriya voyn i voennaya iskusstva” nomli o’quv qo’llanmasini yaratdi.

N.R.Maxkamova mudirlik vaqtida kafedraga tajribali o’qituvchilar jalb etildi. “Milliy istiqlol g’oyasi” fanini talabalarga o’rgatish, singdirish uchun tarix fanlari doktori, professor Ibodov J.X. ishlashga taklif etildi. Bu o’qituvchilar “O’zbekiston tarixi” fanining dotsent va yetakchi o’qituvchilari qatorida kafedraning ilmiy salohiyatini oshirish uchun hizmat qilib kelmoqdalar. Maxkamova Nodira Rahmanovna 2008 yili dotsent unvonini oldi. 2009 yilda esa doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, tarix fanlari doktori unvoniga musharraf bo’ldi.

Shu davr mobaynida kafedra o’qituvchilari tomonidan bir kator monografiyalar, risolalar, o’quv-uslubiy qo’llanmalari tayyorlandi va turli mavzularda ilmiy makolalarni ittifoq va respublika gazeta, jurnallarida chop ettirdilar. Kafedra o’qituvchilari AQSH, Moskva, Sankt-Peterburg, Samara, Toshkentda o’tkazilgan xalqaro konferentsiyalarda ma’ruzalar bilan qatnashdilar.

Kafedraning ilmiy izlanishlari yo’nalishi tariximizning dolzarb muammolariga qaratilgan bo’lib, o’tmishda O’zbekiston hududida fan, madaniyat rivoji masalalarini kengroq o’rganishni va yoritishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan. Mustaqillik yillarida kafedra a’zolari tomonidan ushbu ilmiy yo’nalish bo’yicha olib borilgan ishlar maxsuli sifatida «Sohibqiron Amir Temur haqida yetti suhbat», «Qadimgi tariximizning o’chmas sahifalari», «Markaziy Osiyo xonliklarida madaniyat rivoji», «Jahon tsivilizatsiyasiga qo’shilgan hissa» (rus tilida), «O’zbek xalqining etnik shakllanishi», «O’zbekistonda ko’p partiyaviylikning shakllanishi», «Tarix chorrahalaridagi yuz ism» (rus tilida) kabi monografiya va risolalar chop etildi.

So’ngi yillarda kafedra o’qituvchilari tomonidan «Muloqot», «Sharq yulduzi», «O’zbekiston tarixi» kabi jurnallarda, shuningdek, nufuzli ilmiy to’plamlarda 50 ga yaqin maqolalar e’lon qilindi. Kafedra o’qituvchilari universitetda «O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida», «Jaloliddin Manguberdi buyuk vatanparvar» mavzularida, Respublika Mustaqillik bayramiga bag’ishlab, «O’zbekiston vatanim menning» mavzusida, «Avesto»ning 2700 yilligi» mavzularida ilmiy - amaliy konferentsiya va talabalar anjumanlarini tashkil etish va o’tkazishda faol qatnashdilar.

Universitetda har yili an’anaviy ravishda tashkil etiladigan turli mavzulardagi ilmiy-amaliy konferentsiyalarda kafedra professor-o’qituvchilari faol ishtirok etib kelishmoqda.

Kafedra professor-o’qituvchilari o’z ilmiy salohiyatlari va malakalarini oshirish ustida doimiy ish olib boradilar. Kafedra boshqa ta’lim muassasalari, jumladan O’zFA tarix instituti hamda TATU qoshidagi kollej va akademik litseylar bilan yaqin hamkorlikni yo’lga qo’ygan.



2013-2014 o’quv yilidan boshlab TATU “O’zbekiston tarixi” va “Falsafa” kafedralari birlashtirilib, “Gumanitar fanlar” kafedrasini tashkil topib, uni hozirgi kunda N.R.Maxkamova boshqarmoqda. Shuningdek N.R.Maxkamova universitet olimi ayollar uyushmasi raisi sanaladi. N.R.Maxkamova oliy va o’rta maxsus

ta'lim vazirligi, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda universitetning faxriy yorliq va tashakkurnomalari bilan taqdirlangan.



Kafedrada o'qitiladigan fanlar

Bakalavriat:

- O'zbekiston tarixi
- Madaniyatshunoslik
- Falsafa (etika, estetika, mantiq)
- Ma'naviyat asoslari. Dinshunoslik
- Fuqarolik jamiyati
- Dinshunoslik

Magistratura:

- O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi

Kafedra professor o'qituvchilari

- Mahkamova Nadira Raxmanovna., - tarix fanlari doktori, dotsent
- Tulenova Gulmira Jandarovna., - falsafa fanlari doktori, pofessor
- Sharipova Gulbahor Sulgiyevna., - yuridik fanlari nomzodi, dotsent
- Kasimova Asal Aruslanovna., - yuridik fanlari nomzodi, dotsent
- Amanov Baxtiyor Axtamovich., - siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
- Sagdullayeva Dilbar Shuhratovna., - falsafa fanlari nomzodi, katta o'qituvchi
- Shirinova Fotima Nosirovna., - katta o'qituvchi
- Ziyaeva Dilorom Salixovna., - katta o'qituvchi
- Arifxanov Baxtiyor Anvarovich., - katta o'qituvchi
- Abdullaeva Ziyoda Nabievna., - katta o'qituvchi
- Azizova Mohira Anvarovna., - katta o'qituvchi
- Shirinova Dilfuza Sirojiddinova., - katta o'qituvchi
- Xamdamaova Adolat Rashitovna., - katta o'qituvchi
- Babadjanov Xasan Baxtiyorovich., - katta o'qituvchi
- Boboyorov Bobomurod Normatovich., - katta o'qituvchi
- Alimova Shaxnoza Xamidovna., - katta o'qituvchi
- Zaynitdinova Vasila Bakiyevna., assistent
- Shermatova Nodira Sultonbekovna., - assistent
- Kasimova Zumrad Sabirjanovna - assistent
- Sanaqulov Abror Nazarovich., - assistent
- Mustafojeva Nodira Abdullayevna (o'rindosh) - tarix fanlari doktori
- Payziyeva Muqaddas Xabibullayevna - tarix fanlari doktori
- Baxtiyorzoda Oydin Baxtiyorovna (o'rindosh) - tarix fanlari doktori
- Mamadaliyev Husniddin Muydinovich (o'rindosh) - katta o'qituvchi
- Sodiqov Sanjar Abdumajitovich (o'rindosh)., - katta o'qituvchi
- Tashkenbayava Diyora Abdurashidovna (o'rindosh)., - assistent

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy ishlar

Kafedraning ilmiy mavzusi:

- “O‘zbekistonda zamonaviy ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya jarayoni: holati va rivojlanish istiqbollari”

Kafedraning ilmiy salohiyati 30%.

Hozirgi vaqtda kafedrada ikkita mustaqil izlanuvchi va bitta katta ilmiy xodim-izlanuvchi faoliyat yuritmoqda.

Boboyorov B.N. – mustaqil izlanuvchi. Ilmiy rahbar – falsafa fanlari doktori, professor Tulenova G.J. Dissertatsiya mavzusi: "Jamiyat demokratlashuvida millatlararo munosabatlarning takomillashtirishni ijtimoiy-falsafiy asoslari".

Sagdullayeva Dilbar – mustaqil izlanuvchi. Ilmiy rahbar – falsafa fanlari doktori, professor Tulenova G.J. Dissertatsiya mavzusi: “O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy asoslari”.

Babadjanov X.B. – mustaqil izlanuvchi. Ilmiy rahbar – tarix fanlari doktori Alimova D.A. Dissertatsiya mavzusi: “Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotida transformatsion jarayonlar”.

Sanaqulov A.N. – mustaqil izlanuvchi. Ilmiy rahbar – falsafa fanlari doktori Qaxxarova M.M. Dissertatsiya mavzusi: “Axborotlashgan jamiyat ma’naviy muhiti va virtual olam dialektikasi”.

Baxtiyorzoda O.B – doktorant. tayanch doktorant. Ilmiy rahbar – tarix fanlari doktori, dotsent Maxkamova N.R. Dissertatsiya mavzusi: “XX asr O‘zbekistonda geologiya tarixi”.

Tashkenbayeva Diyora - katta ilmiy xodim-izlanuvchi. Ilmiy rahbar – tarix fanlari doktori, dotsent Maxkamova N.R. Dissertatsiya mavzusi: “Inglizxon tarixshunosligida mustamlaka Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti muammolari”

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy-uslubiy ishlar

- Tulenova G.J. “Falsafa” fanidan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik.(J.Tulenova va K.Tulenova hammualifligida (o‘zbek tilida).
- Maxkamova N.R. “Milliy g‘oya: O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi” (o‘quv-uslubiy qo‘llanma).
- Maxkamova N.R. Mandaralskaya N.V., Kasimova Z.S., “O‘zbekiston tarixi” fanidan akademik litsey o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma (1917-1991yy.).
- Sharipova G.S.,Kasimova A.A. “Huquqshunoslik.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma.
- Zaynitdinova V.B.,Alimova Sh.X. “Ma’naviyat va ma’rifat asoslari” fanidan pedagogik texnologiyalar (o‘zbek tilida).
- Arifxanov B.A. “Harbiy tarix” fanidan maxsus fakultet talabalari uchun ma’ruzalar matni (o‘zbek tilida).
- Xamdamova A.R. “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanidan uslubiy ko‘rsatma.



KAFEDRA TOMONIDAN AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI TASARRUFIDAGI KORXONALAR BILAN TUZILGAN XO'JALIK SHARTNOMALARI

- "UNICON.UZ" FTMTM DUK.
- "O'zbekiston pochta" AJ
- "Alskom" sug'urta kompaniyasi AJ
- Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi
- "Aloqabank"
- Elektromagnit moslashuv markazi davlat unitar korxonasi
- AA va TT sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi.
- "ALOQALOYIHA" DUK
- "O'zbektelekom" AK "Telekommunikatsiya va personalni rivojlantirish markazi"
- "UMS" mobil aloqa operatori



MA'NAVIY VA MA'RIFIY ISHLAR:

Kafedra professor - o'qituvchilari Prezident qarorlari, so'zlagan nutqlari hamda asarlarining mazmun - mohiyatini tushuntirish yuzasidan joylarda, jumladan tashkilot, korxonalar hamda mahallalarda reja asosida va rejadan tashqari targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishmoqda.



Kafedra manzili: S-blok, 3-qavat, 240-xona